

# “Qo`ng`irot soda zavodi” MCHJ QKda “O`zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarining bosh muhandislari ishtirokida konferensiya o`tkazildi

// 01.11.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kungirotsoda-zavodi-konferensiya>



**“Qo`ng`irot soda zavodi” MCHJ QKda “O`zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarining bosh muhandislari** ishtirokida, ishlab chiqarish quvvatlaridan unumli foydalanish, ishlab chiqarish bo`yicha muammolarni ko`rib chiqish va ularni ijobiy hal etish, mahsulotlarning tannarxini tushirish bo`yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni hamkorlikda sifatli olib borish hamda erishilgan yutuqlar bo`yicha tajriba almashinishni tashkil etish yuzasidan konferensiya bo`lib o`tdi.

Konferensiyada quyidagi muhim mavzular yuzasidan taqdimot va muhokamalar o`tkazildi:

- Mahsulotlarning tannarxini pasaytirish bo`yicha olib borilayotgan tadbirlar natijadorligi hamda 2023-yilga ishlab chiqilgan dastur va bugungi kunda ularni amalga oshirish uchun zamin yaratish;
- Bir birlik mahsulot uchun asosiy xomashyo, materiallar va energiya resurslarining sarf me`yorlarini optimalashtirish, jumladan amaldagi sarflar miqdoriga yaqinlashtirish;
- Atrof muhit muhofazasi va ekologik tadbirlarning bajarilishi, asosiy mummoli nuqtalarni avtomatik

monitoring qilish tadbirlarini jadallashtirish.

"O'zkimyosanoat" AJ tizim korxonalarida muntazam o'tkaziladigan bu kabi konferensiyalar Jamiyatda faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning kimyo sanoatidagi ishlab chiqarish jarayonlariga oid muhim mavzularda o'zaro fikr va tajriba almashishlariga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sohaga oid dolzarb masalalarni hal etishda o'ziga xos muhokama maydoni vazifasini bajaradi.







“O`zbekimiyosanoat” AJ Matbuot xizmati